



Bahriiddin Usmonov

FarDU, O‘zbekiston tarixi kafedrasi mudiri, tarix fanlari doktori, professor.



Azizbek Musayev

FarDU, O‘zbekiston tarixi kafedrasi katta o‘qituvchisi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15486851>

ZAMONAVIY USLUBLARGA YO‘G‘RILGAN YANGI DARSLIK

Jamiyatda yuz berayotgan jarayonlarning, erishilayotgan yutuqlar, kelib chiqayotgan yoki mavjud bo‘lgan muammo va kamchiliklarning asl sabablarini anglamaslik, uning kelib chiqishi, sababi va yechimini faqatgina shaxs bilan bog‘lash juda keng tarqalgan. Buning oqibatida jamiyatning fikrini juda oson boshqarish, ko‘rinishidan yechim hisoblanadigan, aslida esa kasallikni sababini emas, uning isitmasini davolaydigan qarorlar bilan yashash, shu holatdan qoniqish odatga aylanadi. Yuqoridaq holatlarning kelib chiqish ildizlari, sabablari juda ko‘p. Ulardan biri tarix fanini o‘qitishdagi vaziyatga ham borib taqaladi, nazarimizda.

Ba'zan yosh o'qituvchilarning ma'lum bir mavzularga oid bo'lgan tarixiy manbalarni talabalarga o'qitayotganliklari, o'zlarining talabalari mana bu, mana bu manbalarni o'rganganligi bilan faxrlanishlariga duch kelamiz. Shunda ulardan talabangiz shu mavzuga oid qanday darslik, o'quv qo'llanma va ilmiy adabiyotlarning o'qigan, deb savol berilishi tabiiy. Odatda biror darslik, o'quv qo'llanmani o'qishgan bo'ladi. Ammo ilmiy adabiyotlarning aksariyatini talabalar o'qimaganligini sezamiz.

Darslik va o'quv qo'llanmalarda, birinchi navbatda, ilmiy adabiyotlarda asoslab berilgan, umum e'tirofiga erishgan tahlillar, fikr mulohaza va xulosalar aks etgan bo'ladi. Ularda har bir tarixiy voqeа, tarixiy jarayonning yuzaga kelish sabablari, rivojlanish yo'nalishlari, oqibatlari haqida umum e'tirof etilgan xulosalar nisbatan sodda, tushunarli tarzda bayon qilinadi. Shuning uchun talabalar, birinchi navbatda, darslik va o'quv qo'llanmalarni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi kerak (To'g'ri bu saviyadagi, bu talablarga javob bera oladigan dasrlik va o'quv qo'llanmalar ko'p emas, bu boshqa masala).

Ilmiy adabiyotlardan esa tarixiy manbalarni, ularda bayon qilingan voqeа va hodisalarni tahlil etish asosida chiqarilgan xususiy ilmiy xulosalar o'rин oladi. Bir masala yuzasidan bir necha ilmiy adabiyotlarda turlicha fikr, qarashlar va xulosalar aks etishi mumkin. Bularni o'rganish talabalarda bir biridan farqli fikr mulohazalarni qiyoslash, ustozи yordamida o'zining qarashini shakllantirish imkonini beradi. O'z-o'zidan keyinchalik talabada har bir masala bo'yicha o'zining fikrlarini, qarashlarini, pozitsiyasini shakllantirish ko'nikmasi paydo bo'ladi.

Tarixiy manbalarni o'rganish ham shubhasiz kerak. Ammo ularni o'rganishga maxsus tayyorgarliksiz kirish talabaga salbiy ta'sir qiladi. Buning uchun umashunoslik fanini to'liq o'zlashtirgan, manbalar bilan ishslash ko'nikmasiga ega bo'lgan bo'lishi kerak. Manbadagi har bir ma'lumot ham tarixiy haqiqat emas. Hatto yolg'on bo'lishi mumkin. Yoki o'sha davrda oddiy holat hisoblangan odatlar, hozirda umuman nojoiz bo'lishi, bu esa tarixiy voqelikka nisbatan noto'g'ri xulosani shakllanishiga olib keladi. Hatto shunday holatlarni kuzatganmiz, bir xil tarixiy

ma'lumotdan ba'zaviy bilimi, ko'nikmasi filolog bo'lgan mutaxassislar boshqa, bazaviy ma'lumoti tarixchi bo'lgan tadqiqotchilar boshqa ilmiy xulosalar chiqarishgan. Chunki tarixiy manbadagi ma'lumotdan tarixiy ilmiy xulosa chiqarish uchun tarixiy tafakkur yuritish ko'nikmasi talab qilinadi. Yoki, aksincha, adabiyotshunos har bir voqeа bayonida tarixchi anglamagan badiiy bo'yoqlarni his qiladi. Chunki unda badiiy taffakur yuritish ko'nikmasi bor.

Qolaversa, tarixiy manbalarda voqelik shaxslar atrofida yoritiladi, ularning o'rni va ahamiyati bo'rttirib ko'rsatiladi. Misol uchun g'alaba kimningdir botirligi, kimningdir esa qo'rkoqligi bilangina izohlanadi. Tarixiy jarayonning rivojlanish qonuniyatlarini anglamagan talabada har bir narsani shaxs bilan bog'lash, shu orqali o'zi yashayotgan jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini anglamay faqat shaxsni aybdor qilish, faqat shaxsdan nojot kutish, muammo bilan emas muammoning oqibatlari bilan kurashish ko'nikmasi paydo bo'ladi. Kasallikka to'g'ri tashhis qo'ya olmagan tabib uni davolay olmaganidek, bu kabi mutaxassislar bilan jamiyat ham rivojlashlanishda qiynaladi.

Shuning uchun ham talabalar darslik va o'quv qo'llanmalarni to'liq o'rganishi, so'ngra ilmiy adabiyotlar bilan chuqur tanishishi, shundan keyingina ma'lum bir ko'nikma shakllanganidan so'ng tarixiy manbalar tahliliga kirishi maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz.

Yuqorida ta'kidlanganidek, talabalar uchun sodda va ravon tilda yozilib, tarixiy jarayonlar keng tahlilga tortilgan, shuningdek, mavzularni faqatgina matn shaklida emas, balki, jadval, eslatma, videodars singari qo'shimcha resurslar bilan boyitilgan darsliklar sanoqli hisoblanadi. Mana shunday nashrlar sirasiga Toshkent Kimyo xalqaro universiteti professori, tarix fanlari doktori Akbar Zamonovning yakka va hammuallifliklarda chiqargan 4 jildlik O'zbekiston tarixi darsligini kiritish mumkin. Ushbu darslik bakalavriatning tarix ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, mavjud manbalar, so'nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqot natijalari bilan boyitilganligi, fan bo'yicha innovatsiyalarning joriy etilganligi bilan ilgarigi o'quv adabiyotlaridan farq qiladi.

Darsliklar xronologik jihatdan bo‘lingan bo‘lib, uning dastlabki jildi O‘zbekistonning qadimgi davridan to Arab xalifaligining zaiflashuvigacha, ikkinchi jildi IX – XIV asrlarni, uchinchi jildi Temuriylar sultanati va Buxoro xonligi davri, to‘rtinchi qismi esa xonliklar davri, ya’ni XVI – XIX asr o‘rtalarigacha yuz bergen siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy jarayonlarni qamrab olgan.

O‘zbekistonning qadimgi davridan IX asrgacha bo‘lgan tarixi yoritilgan birinchi jidda mintaqadagi dastlabki sivilizatsiyalar, ularning ijtimoiy, diniy va madaniy hayotini aks ettiruvchi dalillar, arxeologik qoldiqlar va tarixiy izlar o‘rganilgan. Ilk davlat tuzilmalari, boshqaruv tizimi va ijtimoiy muhitning shakllanishi tahlil qilinib, qadimgi davrning murakkab ijtimoiy hayoti o‘quvchiga sodda tilda tushuntirilgan. Tarixiy voqealarga yangi ilmiy qarashlar asosida yondashuv, qadimgi yozma va arxeologik manbalar orqali tarixiy faktlarning qayta tiklanishi, o‘quvchilarga mustahkam ilmiy asoslar taqdim etadi.

Ikkinci jild IX – XIV asr o‘rtalaridagi tarixiy jarayonlarga bag‘ishlangan bo‘lib, Movarounnahr va Xuroson hududlarida yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar sodir bo‘lgan davrni yoritadi. Ushbu davr ichida ko‘plab mustahkam davlatlar, jumladan, Somoniylar, Qoraxoniylar, G‘aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar o‘zaro raqobat, hamkorlik va madaniy almashinuv jarayonlari orqali shakllangan. Davlatlarning tashkil etilishi, ma’muriy boshqaruv tizimlari va siyosiy institatlarning shakllanishi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga ta’siri ham alohida tahlilga tortilgan. Shuningdek, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamashariy kabi bir qancha buyuk olimlarning ilmiy merosi va ularning zamonaviy ilm-fanga qo‘shtan hissasi keng yoritilgan. Ayni jild, o‘quvchilarga o‘rta asrning murakkab va ko‘p qirrali tarixiy jarayonlarini, shuningdek, davlatlararo aloqalar va madaniy almashinuvning asosiy omillarini chuqr tahlil qilish imkonini beradi.

Nashrnning uchinchi jildi davlatchilik tariximizning ham shonli ham murakkab davrlaridan biri bo‘lgan XIV asrdan XVIII asrgacha bo‘lgan qismini o‘z ichiga oladi. Mo‘g‘ullar istilosi tufayli barcha sohalarda turg‘unlik holati kuzatilgan bir davrda

siyosiy maydonga Amir Temurning kirib kelishi, keyinchalik mintaqada Temuriylar salatanatiga asos solinishi, ikkinchi Uyg'onish davrining yuz berishidan tortib, shayboniyalar va ashtarxoniyalar tomonidan boshqarilgan Buxoro xonligi, uning qo'shni davlatlar bilan munosabati, ilm-fan hamda iqtisodiy hayot kabi qator jihatlari qamrab olingan.

O'zbek davlatchiligi tarixining yana bir murakkab qismi hisoblangan xonliklar davri darslikning to'rtinchi jildida batafsil yoritilgan. Buxoro amirligi, Xorazm va Qo'qon xonliklari Markaziy Osiyo mintaqasi tarixida o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, hududdagi mahalliy davlatlarning siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti bosqichma-bosqich yoritilgan. Ayniqsa, sodir bo'lgan ichki siyosiy kurashlar, ijtimoiy munosabatlar va tashqi bosimlar, jumladan, Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati, tahliliy jihatdan yoritilgan. Xonliklardagi iqtisodiy aloqalar, savdo va madaniy almashinuvning rivojlanishi kabi masalalarga ham alohida e'tibor qaratilgan. To'rtinchi jild o'quvchilarga hududdagi tarixiy jarayonlarni tahlil qilish, shuningdek, zamonaviy dunyoqarashda mahalliy tarixiy tajribaning o'rnini anglash imkoniyatini yaratadi.

Darslikning har bir jildida tegishli mavzular qo'shimcha o'qish uchun ilmiy adabiyot, maqola, asosan O'zbekiston tarixi telekanalining youtube videohostingidagi rasmiy sahifasiga joylashtirilgan mavzuga oid videolar bilan boyitilgan. Shuningdek, har bir mavzu so'ngida topshiriq hamda savollar va foydalanylган adabiyotlar o'rinni olgan.

O'quv adabiyotlarida shu vaqtgacha mavjud bo'lgan davlat nomlari boshqacha talqinda bayon qilingan holatlarni ham uchratish mumkin. Masalan, I jildning 11-, 12-, 14-mavzularida Boxtar toponimi, biz avvallari o'qigan va bilgan Baqtriya so'zi o'rnida qo'llanilgan. Yoki bo'lmasa, Markaziy Osiyo (O'rta Osiyo), Turkiston, Movarounnahr kabi bir nechta ishlatish mumkin bo'lgan geografik nom o'rniga, barcha holatlarda Turon atamasi muqobil sifatida ishlatilgan. Shuningdek, IV jildning 4-, 5-mavzularida Xorazm xonligi haqida so'z yuritilgan. Ma'lumki, oldingi nashrlarning deyarli hammasida 1511-yil Xorazmda tashkil topgan davlat Xiva

xonligi, deb yuritilgan. Muallifning ushbu yondashuvini biz ham to‘la-to‘kis quvvatlagan holda keyingi ilmiy va o‘quv adabiyotlarida ham unifikatsiya nuqtayi nazaridan mazkur atamalarni qo‘llash maqsadga muvofiq, deb o‘ylaymiz.

Bugungi tarix faniga nisbatan qarash o‘zgargani, uni o‘rganishdagi metodologik yondashuvlar zamonavishlashib borayotganini hisobga olib shuni aytish mumkinki, mazkur darsliklar ayni kun talabiga juda mos keladi. Mavzularning rejalar xronologik yoki muammoviy yondashuv jihatidan tuzilganligi, foydalanylган adabiyotlarning elektron nusxasi Telegram messenjeridagi alohida guruhda to‘planganligi, mavzuga oid videodarslarning joylashtirilganligi, jadval hamda diagrammalardan unumli foydalanganligi o‘quv adabiyotini nafaqat zamonaviy, balki, uni rang-barang hamda qiziqarli bo‘lishini ta’minlagan. Bir so‘z bilan aytganda, mualliflar tomonidan bugungi kun o‘quvchisi uchun ayni kerakli darslik yaratilgan.